

Ogahiy – tarjimon

Tarjima yoki tarjimon uchun san'atkor katta yoki kichik xalq yozuvchisi bo'lishining ahamiyati yo'q: u hamma uchun bab-baravar xizmat qiladi¹.

Ogahiy tarjimonlik faoliyatidagi yuksak martaba, bir tomondan, uning shaxsiy qobiliyati bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, davr madaniy hayotining xususiyati, Xorazmda tarjimachilik ishining yuqori saviyadagi umumiy darajasi bilan ham belgilanadi².

Shoir o'z devoni, "Ta'vizul-oshiqin"ning debochasida tarjimalarini nomma nom sanab o'tadi:

"Faqirning turkiy tili bila tarjima qilg'on kitoblari: "Ravzatus-safo"ning ikkinchi daftaridin Chahor yoki izomning voqeasi, uchlanchi daftari va "Nodirnoma" va "Zafarnoma" va "Zubdatul-hikoyot" va "Miftohut-tolibin" va "Axloqi Muhsiniy" va "Vosifiy" va "Nasihatnoma Kaykovus" va "Salamon-Absol"i Jomiy va "Guliston"i Sa'diy va "Bahoriston"i Jomiy va "Ravzatus-safo" Nosiriyning birinchi daftari va "Daloyilul-xayrot" sharhikim, rum turkiysidin chig'atoy tiliga o'tkazildi va "Tazkirai Muqimxoniy" va "Tabaqoti Akbarshohiy" va "Haft paykar"i Nizomiy va "Hasht bihisht"i Xusraviy va "Yusuf Zulayho"yi Jomiy kim, manzum bo'ldi va "Shohu Gado"i Hiloliykim manzum bo'ldi³.

Ne tong ogoh bo'lsa, Ogahiy, ishqing sirnidin kim,

Anga behuda ermas osmondin bu aqab paydo.

Bu maqolada milliy istiqlol sharofati bilan Ogahiy she'riyati badiiyati, xususan, shoirning she'riy san'atlar qo'llashdagi mahoratini tadqiq etish ko'zda tutulgan. Ijodkor she'riyatida she'riy san'atlarning qo'llanilishi ham yaxlit tahlil

¹ Саломов Ф. Таржимон маҳорати. – Тошкент: Фан, 1979.

² Саломов Ф. Таржимон маҳорати. – Тошкент: Фан, 1979.

³ Ogahiy. Ta'vezul oshiqin. O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, № 938. – B. 17.

etilmagan. Shoir she'riyatini shu nuqtai nazardan o'rganish uning badiy mahoratini kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham Ogahiy avvalambor ilmni yuqori darajada sharaflaydi:

“Ilm andoq ganji nofidur bani odamg'akim, kimda ul bo'lsa, iki olam bo'lur obod anga”, ilmni ulug'lagan, keyinchalik ilmga yanada yuksak martabada urg'u beradi:

Ey, keldi fununu ilm taslim sanga,
Qilmoq manga lozim o'ldi ta'zm sanga.
Garchi yo'q edi quvvat ayoqimda, vale,
Keldim bosh ila olg'ali ta'lim sanga.

Ogahiy ijodining asosini tashkil etuvchi chuqur falsafiylik va xalqchillik, hayotsevarlik, insonparvarlik, odamiylik va ma'rifatparvarlik, yuksak odob-axloq tashviqi, har jihatdan kamolotga etgan o'ziga xos falsafiy-axloqiy tarzda yoritilgan. Shoir ijodining mavzu doirasi keng. U qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiyatning cheksiz qirralari, imkoniyatlaridan unumli, mohirona foydalangan. Shuning uchun ham uning she'rlarida fikrlar yorqin, ta'sirchan, jozibali namoyon bo'ladi.

Sa'diy Sheroziy she'ri
On na man bosham, ki ro'zi beni pushti man,
On manam kandar mnyoni xoku beni sare.
Kon ki chang orad ba xuni xesh bozi mekunad,
Ro'zu maydon von ki bigrezad ba xuni lashkare.

Sayfi Saroyi tarjimasida quydagicha yangraydi:

Ey bahodirlar, biling, keldim kukun maydonga men,
Bosh o'ynab, jon tarkin urmag'a maydonamen.
So'ngu o'ynab, ot chopur, ko'p turlu ardam ko'rkuzub,
Aytti ul: “Zanjirin uzgan forsiy devonamen”.

Ogahiy tarjimasida esa quydagicha:

Men aningdek kimsa emasmanki yovdin qocharmen,
Mardman andoqki ko'rgungdur tanimni qon aro.

Kim urushga chiquvchi kechmak kerakdur jonidin,

Qoniga qolg'ay cherikning gar qochar maydon aro.

Ogahiy tarjimasida asliyatdan uzoqlashish-yaqinlashishning o'z darajasi, xususiyati bor. Uning misralari tarjimada aniq, adekvat tarjima bo'lib chiqqan, she'rning umumiy ruhi, vazn va qofiya saqlangan.

Badiiy so'zning ma'no miqyosidan keng foydalanib, ya'ni ma'no qirralarini topish jihatidan ham Ogahiy Navoiydan keyin «eng ko'p va eng xo'b» aytgan shoirlardandir. U ataylab badiiy san'at qo'llamaydi, uning qalamiga tushgan so'z san'at bo'lib muhrlanadi.

So'z labidan ul ado birla chiqarkim rashkidin,

Tushgusidir la'li serob-u duri maknung'a ot⁴.

Ogahiy tarjimon sifatida to'qqizta badiiy, oltita tarixiy, to'rtta axloqiy, axloqiy-falsafiy xarakterdagi asarlarni turkiy tilga o'giran. Jumladan, Nizomiyni «Haft paykar», Dehlaviyni «Hasht behisht», Kaykavusning «Qobusnoma», Muhammad Vorisning «Zubdatul-hikoyat», «Shahri daloyil Xayrat», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Abdurahmon Jomiyni «Bahoriston», «Yusuf va Zulaxo», «Salomon va Absol», Sa'diyni «Guliston», Hiloliyni «Shoh va Gado», Mirxondning «Ravzatus-safo» (Munis boshlagan), Muhammad Mahdiy Astrobodyning «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy», Zayniddin Vosifiyning «Badoe'ul-vaqoe», Shayx Ali G'ijduvoniyni «Miftoh ut-tolibin», Muhammad Muqim Hirotiyni «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Yusuf Munshining «Tazkirayi Muqimxoniy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us-safoyi Nosiriy» kabi asarlar Ogahiy tomonidan nasriy, she'riy va nasriy-she'riy usullarda o'zbek tiliga tarjima etildi. Ogahiy ijodining ana shu qirralari olim N.Komilovning «Bu qadim san'at» monografiyasida ancha keng tahlil etilgan.

Ogahiyning tarjimachilik borasidagi mahorati xususida ko'p yozilgan, hali ko'plab tadqiqotlar olib boriladi. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori, ogahiyshunos olim professor Najmiddin Komilov tadqiqotlari tahsinga loyiq. U kishi Ogahiy

⁴ Огаҳий. Сарв қомат кўрмишам. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – В. 42. (Мазкур манбадан олинган кейинги мисолларнинг саҳифалари қавс ичида кўрсатилади).

tarjimalarini asl nusxalar, boshqa tarjimalar bilan solishtirib, shoirning tarjimonlik qobiliyati va faoliyatiga yuqori baho bergan. N.Komilovni Ogahiyning tarjimonlik faoliyatini ipidan ignasigacha o'rgangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, prof. N.Komilov nafaqat nomzodlik, balki doktorlik dissertatsiyasini ham hazrat Ogahiy ijodiga bag'ishlagan ustod hisoblanadi.

U Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari tarjimasi xususida to'xtalib, shunday yozadi: "Tasvirlanishicha, bir dono odam bir pahlavon yigitni uchratadiki, u nihoyatda g'azablanib, qo'liga tosh olib turibdi. Dono atrofdagilardan bunga nima bo'ldi, deb so'raganda, ular falon kishi tanbeh berdi, deb javob beradilar. Shunda u: "In furo'man hazor man sang barmedoradu toqati suxane nameorad", deb o'tib ketadi. Bu jumlaning Ogahiy: "Bu bechoraning ming botmon toshni ko'tarmakka quvvati bordur, bir so'zni ko'tarmakka toqati yo'qdur" deb o'g'irgan. "Furo'man" so'zining lug'aviy ma'nosi asli, nasabi past, demakdir. (Murodxo'ja "past va badasl" deb tarjima qilgan). Ammo Ogahiy uni "bechora" deb o'g'irgan. Bu to'g'rimi? Agar hikoyatning umumiy mazmuni va dono so'zining ohangini nazarga olsak – bu to'g'ri. Sababi, bu so'z jismoniy baquvvat bo'lib, ma'naviy ojiz bo'lgan pahlavonga nisbatan kesatiq ma'nosida ishlatilgan, sohibdil uning vajohatidan kuladi. Shuning uchun Ogahiyning uni o'zbek tilida tahna va kinoya ohangini ifodalovchi "bechora" so'zi bilan ag'darishi ayni muddaodir".

Bu Ogahiyning bitta asardagi, bitta jumlasidagi mahorati. Ogahiy tarjimalarini ilmiy o'rganish bizga katta maktab vazifasini o'tash bilan birga tarjimashunoslik sir-asrorlaridan voqif qiladi, badiiy va ilmiy salohiyatimizning yanada sayqallashishiga yordam beradi. Hazrat mumtoz asarlarni turkiyga o'girib, o'zbek adabiyoti xazinasining boyishiga munosib hissa qo'shgan alloma hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammadrizo Ogahiy keng ko'lamli shoir sifatida o'zbek she'riyatining badiiyat qatlamlari imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, uni yangi qirralar bilan boyitdi. Ana shu mohirlik uning tarjimalarida ham o'z aksini topdi. Asarlar tarjimalarida ta'sirchanlik, tabiiylik yo'qolmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саломов Ғ. Таржимон маҳорати. – Тошкент: Фан, 1979.
2. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан, 1980.
3. Ogahiy. Ta'vezul oshiqin. O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, № 938.
4. Огаҳий. Сарв қомат кўрмишам. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.